



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar – fevral oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi
– 373,2 mlrd. so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi
– 1,5 %

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar ulushi
– 56,8 %

Norasmiy sektor ulushi
– 41,8 %


2019 yilning yanvar – fevral oylarida Samarqand viloyatida 373,2 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2018 yilning shu davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 5,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 107,3 foizni tashkil qildi.

Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 211,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil qildi.

Norasmiy sektorda qurilish montaj ishlari hajmi 155,8 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





Qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning hajmi **286,8** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **76,9** % ni, o'sish sur'ati **104,2** % ni tashkil etdi.



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **43,3** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **11,6** % ni, o'sish sur'ati **112,1** % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari **43,0** mlrd. so'mni yoki jami hajmga nisbatan **11,5** % ni, o'sish sur'ati **187,6** % ni tashkil etdi.




Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.






Iqtisodiy faoliyat turlarining mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari






Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **343,9** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining **92,1** foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan **18,7** bandga kamaydi.



Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan **29,4** mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi **7,9** foizini tashkil qildi.




Hududlar kesimida qurilish ishlari

	Jami mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan (%)	jami hajmga nisbatan ulushi
Viloyat bo'yicha	373,2	106,1	100
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	121,2	108,8	32,5
Kattaqo'rg'on sh.	8,4	108,6	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	31,7	108,6	8,5
Bulung'ur	10,3	108,9	2,7
Jomboy	18,4	105,1	4,9
Ishtixon	19,2	104,4	5,1
Kattaqo'rg'on	15,4	103,2	4,1
Qo'shrabot	13,8	108,3	3,7
Narpay	14,2	103,2	3,8
Nurobod	8,0	121,2	2,1
Payariq	21,1	100,1	5,6
Pastdarg'om	24,1	104,2	6,4
Paxtachi	11,4	106,8	3,1
Samarqand	17,5	103,6	4,7
Tayloq	17,2	101,5	4,6
Urgut	21,6	100,1	5,8




Hududlar kesimida qurilish ishlari

(mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmini o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichda bajarilishi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Samarqand shahrida – **121,2** mlrd. so'm, Oqdaryo tumanida – **31,7** mlrd. so'm, Pstdarg'om tumanida – **24,1** mlrd. so'm, Urgut tumanida – **21,6** mlrd. so'm hamda Payariq tumanida – **21,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.






Hududlar kesimida qurilish ishlari (foiz hisobida)



Qurilish ishlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori darajadagi o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi: Nurobod tumanida – **121,2** %, Bulung'ur tumanida – **108,9** %, Samarqand shahrida – **108,8** % va Kattaqo'rg'o'n shahrida – **108,6** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari (jami hajmga nisbatan foizda)



Samarqand viloyat statistika boshqarmasi

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

I.Raxmatov
(66) 235-60-82